



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA UNING SHAXS PSIXIKASIGA DETERMINISTIK TA'SIRI

Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi

Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Iqtisodiy barqarorlik, bandlik, ijtimoiy himoya hamda hayot sifati kabi makroiijtimoiy omillar shaxsning emotsional holati, stressga chidamliligi, motivatsiyasi va psixologik farovonligiga ta'sir etuvchi muhim determinantlar sifatida ko'rib chiqiladi. Determinizm yondashuvi asosida ijtimoiy muhit va psixik jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari jamiyatda psixologik barqarorlikni mustahkamlash hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, shaxs psixikasi, determinizm, psixologik farovonlik, stressga chidamlilik, motivatsiya.

Abstract: The article presents a scientific and theoretical analysis of the deterministic influence of socio-economic stability in Uzbekistan on the individual's psyche. Macro-social factors such as economic stability, employment, social protection, and quality of life are considered key determinants affecting emotional state, stress resistance, motivation, and psychological well-being. Based on the deterministic approach, the cause-and-effect relationship between the social environment and mental processes is revealed. The research findings provide a basis for developing practical recommendations aimed at strengthening psychological stability in society and promoting the development of human capital.

Key words: socio-economic stability, individual psyche, determinism, psychological well-being, stress resistance, motivation.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ детерминированного влияния социально-экономической стабильности в Узбекистане на психику личности. Макросоциальные факторы, такие как экономическая стабильность, занятость, социальная защита и качество жизни, рассматриваются в качестве ключевых детерминант, влияющих на эмоциональное состояние, стрессоустойчивость, мотивацию и психологическое благополучие человека. На основе детерминистического подхода раскрывается причинно-следственная связь между социальной средой и психическими процессами. Результаты исследования позволяют разработать практические рекомендации, направленные на укрепление психологической устойчивости общества и развитие человеческого капитала.

Ключевые слова: социально-экономическая стабильность, психика личности, детерминизм, психологическое благополучие, стрессоустойчивость, мотивация.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan bir qatorda inson omili, uning psixologik farovonligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasi ham davlatlar rivojlantirishining asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik nafaqat moddiy farovonlikni ta'minlaydi, balki shaxs psixikasining sog'lom rivojlanishi uchun zarur bo'lgan psixologik xavfsizlik muhitini ham shakllantiradi. Xalqaro tadqiqotlarda iqtisodiy beqarorlik, ishsizlik, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik shaxsning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, stress, xavotir, depressiv holatlar hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni kuchaytirishi ilmiy asosda isbotlangan. Aksincha, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy omillarni shaxs psixikasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixologiyada deterministik yondashuv shaxs psixikasining shakllanishi va rivojlanishini muayyan obyektiv shart-sharoitlar bilan bog'liq holda talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, insonning emotsional holati, xulq-at-



vari va psixologik farovonligi tasodifiy emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik shaxs psixikasining muhim tashqi determinanti sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholi farovonligini oshirish, bandlikni ta'minlash, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu islohotlar jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirib, shaxsning psixologik moslashuvi va ruhiy salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarning shaxs psixikasiga ta'sirini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish zarurati mavjud.

Mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning shaxs psixikasiga deterministik ta'sirini ilmiy asosda yoritish, makroijtimoiy omillar va psixologik jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari jamiyatda psixologik barqarorlikni mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda ijtimoiy siyosatni psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot o'sishi 5,8 % ni tashkil qilgan. Ishsizlik darajasi 9 % atrofida bo'lib, davlatning bandlikni ta'minlash strategiyasi, jumladan, yoshlarni ish bilan ta'minlash dasturlari orqali sezilarli darajada kamaymoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya barqarorligi va narxlarning nisbatan barqarorligi aholining iqtisodiy xavfsizligini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari esa yoshlar hamda o'rta qatlam vakillari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Barqaror iqtisodiy sharoit shaxsning kelajakka bo'lgan ishonchi, ijobiy emotsiyalari va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy barqarorlik shaxs psixikasi uchun muhim determinativ omil sifatida qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Pensiya va nafaqa tizimi, subsidiyalar hamda bandlik dasturlari ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlaydi. Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarining kengaytirilishi shaxsning psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, bepul ta'lim va kasb-hunar markazlari yoshlarning o'z salohiyatini rivojlantirishiga, stressni boshqarishiga hamda ijtimoiy moslashuviga hissa qo'shadi.

Psixologik deterministik yondashuvga ko'ra, shaxs psixikasi va xulq-atvori tasodifiy shakllanmaydi; u ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy sharoitlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu asosda quyidagi psixologik jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdan bevosita ta'sir oladi.

Barqaror iqtisodiy va ijtimoiy muhit shaxsda ijobiy emotsiyalarni kuchaytiradi, xavotir va qo'rquv hissini kamaytiradi. O'zbekistonda yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash dasturlarida qatnashgan ishtirokchilar emosional barqarorlik indeksida yuqori natijalarni ko'rsatgan. Iqtisodiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik shaxsning stressga chidamliligini oshiradi. Universitet talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhitda yashovchi talabalar iqtisodiy beqaror sharoitda yashovchi tengdoshlariga nisbatan stressni boshqarishda sezilarli darajada yuqori natijalarni qayd etgan. Barqaror muhit shaxsni uzoq muddatli rejalashtirishga, kasbiy rivojlanishga va bilim olishga intilishga undaydi. Ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlar shaxsning o'z salohiyatini amalga oshirishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Barqaror jamiyat sharoitida shaxs ijtimoiy munosabatlarga faol kirishadi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashadi. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik shaxsning oila, ish va jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlaydi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini kuchaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning shaxs psixikasiga ta'siri masalasi psixologiya fanida deterministik yondashuv asosida izohlanadi. S. L. Rubinshteyn 1957-yilda nashr etilgan "Основы общей психологии" asarida psixikaning rivojlanishi tashqi ijtimoiy sharoitlar bilan uzviy bog'liqligini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, shaxs faoliyati va ongining shakllanishi ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keladi, ya'ni tashqi omillar ichki psixik jarayonlar orqali namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni shaxs psixikasining muhim determinanti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Inson ehtiyojlari va psixologik farovonlik o'rtasidagi bog'liqlik A. H. Maslow tomonidan 1943-yilda ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida yoritilgan. Maslowga ko'ra, xavfsizlik va barqarorlik ehtiyojlari qondirilmasdan turib, shaxsning o'zini namoyon etishi va yuqori darajadagi motivatsiyasi shakllanmaydi.

R. S. Lazarus va S. Folkman 1984-yilda chop etilgan "Stress, Appraisal, and Coping" asarida stressni ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'lab, iqtisodiy noaniqlik va ijtimoiy beqarorlikni psixologik zo'riqish manbai sifatida ko'rsatgan. Ularning nazariyasiga ko'ra, barqaror ijtimoiy muhit shaxsning stressga chidamliligini va moslashuvchanligini oshiradi.

Ijtimoiy tengsizlik va salomatlik o'rtasidagi bog'liqlik M. Marmot tomonidan 2005-yilda The Lancet jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda chuqur tahlil qilingan. Olim ijtimoiy maqom va iqtisodiy imkoniyatlar shaxsning ruhiy va

jismoniy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 2014-yilda nashr etgan "Social Determinants of Mental Health" hisobotida ham ruhiy salomatlik ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. Mazkur ilmiy manbalar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va shaxs psixikasi o'rtasida deterministik sabab-oqibat munosabatlari mavjudligini tasdiqlaydi hamda ushbu masalaning zamonaviy psixologiyada dolzarbligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi aralash yondashuv asosida tashkil etildi. Ma'lumotlar O'zbekiston yoshlari va mehnatga layoqatli aholisi o'rtasida o'tkazilgan etern so'rovnomasi, psixologik testlar hamda yarim tuzilgan intervyular orqali to'plandi. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari sifatida etern holati, daromad barqarorligi va ijtimoiy himoya dasturlarida ishtirok etish darajasi inobatga olindi. Psixologik holatni baholashda stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va motivatsiya indekslari o'lchandi. Olingan ma'lumotlar eternini tahlil usullari, jumladan, korrelyatsion tahlil va taqqoslash metodlari yordamida qayta ishlanib, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan psixologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi eternistik bog'liqlik aniqlashtirildi. Natijalar jadval va diagrammalar asosida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2023-yilda O'zbekiston yoshlari orasida o'tkazilgan so'rovnomasi natijalariga ko'ra, respondentlarning 72 % i ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik stress darajasini pasaytirishini, 65 % i esa motivatsiyani oshirishini ta'kidlagan. Bandlik va ijtimoiy himoya dasturlarida qatnashgan shaxslarning emotsional barqarorlik indeksi ancha yuqori bo'lib, bu deterministik ta'sir mavjudligini tasdiqlaydi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida motivatsiya va kelajakni rejalashtirish indeksi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog'liq holda sezilarli darajada oshishi kuzatilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning shaxs psixikasiga ta'siri masalasi zamonaviy psixologiya va ijtimoiy fanlarda keng tadqiq qilinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning ruhiy salomatligi va emotsional barqarorligi ko'pincha uning yashash sharoitlari, iqtisodiy holati hamda ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'liq. Xususan, past daromad, ijtimoiy notenglik va cheklangan resurslar shaxsda stress, xavotir hamda depressiv holatlarni kuchaytiradi. Shu bilan birga, barqaror iqtisodiy va ijtimoiy muhit shaxsning motivatsiyasi, kelajakka ishonchi va emotsional barqarorligini oshiradi.

Allen va Marmot tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ijtimoiy status va psixologik farovonlik o'rtasidagi deterministik bog'liqlikni tasdiqlaydi. Ularning natijalariga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy statusi past bo'lgan shaxslar stressga chidamlilik, ijtimoiy moslashuv va motivatsiya jihatidan sezilarli darajada pastroq ko'rsatkichlarga ega. Bu holat ijtimoiy determinizm yondashuvining shaxs psixikasini shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar farzandlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti ularning ruhiy va jismoniy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Ayrim boy oilalarda o'sgan bolalarda psixologik funktsionallikning pastroq bo'lishi ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikni muvozanatli ta'minlash zaruratini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va shaxs psixikasi o'rtasida deterministik sabab-oqibat bog'liqligi mavjudligini tasdiqlaydi. Shu asosda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bandlik, ijtimoiy himoya va yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari shaxsning ruhiy salomatligi hamda emotsional barqarorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Psixologik determinizm nazariyasiga ko'ra, shaxs psixikasi tasodifiy shakllanmaydi, balki uni o'rab turgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida rivojlanadi. Bu yondashuv shaxsning emotsional holati, motivatsiyasi va xulq-atvori jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan sabab-oqibat munosabatida ekanligini asoslaydi. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhit shaxsda xavfsizlik hissi va psixologik barqarorlikni shakllantirsa, beqarorlik stress va xavotir holatlarining kuchayishiga olib keladi.

Maslou tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ham mazkur mavzuni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur nazariyaga ko'ra, insonning psixologik farovonligi, avvalo, uning asosiy fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarining qondirilishiga bog'liq. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ushbu ehtiyojlarning qondirilishini ta'minlab, shaxsning o'zini namoyon etishi va shaxsiy rivojlanishiga imkon yaratadi.

Lazarus va Folkman tomonidan ilgari surilgan stress va moslashuv nazariyasi esa ijtimoiy-iqtisodiy omillarni stress manbai sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik va ijtimoiy noaniqlik shaxsda surunkali stressni yuzaga keltiradi, bu esa psixik salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, barqaror ijtimoiy muhit shaxsning stressga chidamliligini va moslashuvchanligini oshiradi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning psixologik farovonlik bilan uzviy bog'liqligi tasdiqlangan. Marmot tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy determinantlar nazariyasi shaxs salomatligi va ruhiy holati uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei hamda iqtisodiy imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ushbu nazariya ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlash psixologik salomatlikni mustahkamlashning muhim sharti ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.



Umuman olganda, yuqoridagi nazariy yondashuvlar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va shaxs psixikasi o'rtasida kuchli deterministik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur nazariy asoslar O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning shaxs ruhiy salomatligi va emotsional barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tushuntirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlil va ilmiy manbalar sharhi asosida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik shaxs psixikasining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi deterministik omillardan biri hisoblanadi.

Muallif pozitsiyasiga ko'ra, barqaror iqtisodiy muhit va samarali ijtimoiy himoya tizimi shaxsda xavfsizlik hissini kuchaytirib, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik hamda ijtimoiy faollikning oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, muallif tomonidan olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar faqat moddiy farovonlikni ta'minlash bilan cheklanib qolmay, balki jamiyat a'zolarining psixologik salomatligini mustahkamlashga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, yoshlar va talaba-yoshlar orasida bandlikni ta'minlash, ta'lim sifati va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish psixologik barqarorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning ilmiy pozitsiyasiga ko'ra, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash jarayonida psixologik omillarni inobatga olish zarur.

Xususan, davlat ijtimoiy siyosatida shaxsning ruhiy salomatligi va psixologik farovonligini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur xulosalar kelgusida olib boriladigan empirik tadqiqotlar va amaliy psixologik dasturlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рубинштейн, С. Л. (1957). Основы общей психологии. Москва: Педагогика.
2. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
3. Lazarus, R. S., va Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer Publishing Company.
4. Marmot, M. (2005). Social Determinants of Health Inequalities. The Lancet, 365(9464), 1099–1104.
5. World Health Organization. (2014). Social Determinants of Mental Health. Geneva: WHO Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.